



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 fevral holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **3,6 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi o'zgarishsiz qolgan
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,8 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar oyida Respublikada 5,1 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,7 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,3 % kamaygan hamda ularning soni 1,3 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingta (1,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 289,1 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,4 %), Toshkent (9,5%), Farg'ona (8,9 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 fevral holatiga)*

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'z. Respublikasi	304,1	100,0	289,1	100,0
Q. Respublikasi	14,7	4,8	14,0	4,8
viloyatlar:				
Andijon	26,3	8,6	24,8	8,6
Buxoro	16,7	5,5	15,8	5,5
Jizzax	13,1	4,3	12,4	4,3
Navoiy	19,4	6,4	18,7	6,5
Namangan	9,9	3,3	9,6	3,3
Qashqadaryo	21,1	6,9	20,0	6,9
Samarqand	22,7	7,5	21,3	7,4
Surxondaryo	14,8	4,9	13,9	4,8
Sirdaryo	10,2	3,4	9,5	3,3
Toshkent	31,3	10,3	27,4	9,5
Farg'ona	26,3	8,6	25,9	8,9
Xorazm	14,4	4,7	13,8	4,8
Toshkent sh.	63,2	20,8	62,0	21,4

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da




faoliyat ko'rsatayotganlar
 faoliyatsizlar

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,3 % sanoatda, 8,5 % qurilishda, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p), savdoda (-0,9 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,9 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p.), qurilishda (+0,3 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,2 f.p.), shuningdek tashish va saqlashda hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.02.2018 y.	01.02.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	3,1	-1,0
Savdo	22,0	22,9	-0,9
Axborot va aloqa	2,2	2,4	-0,2
Sanoat	17,3	16,4	0,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,4	6,9	0,5
Qurilish	8,5	8,2	0,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,0	5,8	0,2
Tashish va saqlash	4,2	4,1	0,1
Boshqa turlari	30,3	30,2	0,1

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 fevral holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5608 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 583 taga yoki 11,6 % ga o'sgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 3671 ta (65,5 %i), Toshkent viloyati 600 ta (10,7 %) va Samarqand viloyatlari 283 ta (5,0 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 51 ta (0,9 %), Qashqadaryo viloyati 55 ta (1,0 %), Surxondaryo viloyati 59 ta (1,1 %) va Navoiy viloyati 60 ta (1,1 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 fevral holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2483 ta (44,3 %), savdoda 1078 ta (19,2 %), boshqa turlarida esa 996 ta (17,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 76 ta (1,4 %), axborot va aloqada 129 ta (2,3 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 162 ta (2,9 %), tashish va saqlashda 163 ta (2,9 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 221 ta (3,9 %) va qurilishda 300 ta (5,3 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 fevral holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 232,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 fevral holatiga qaraganda 9,0 %ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 53059 tasi (22,8 %) Toshkent shahriga, 22075 tasi (9,5 %) Toshkent, 20563 tasi (8,8 foizi) Farg'ona hamda 20409 tasi (8,8 foizi) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 232,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 63168 tasi (27,1 %) – savdoda, 49413 tasi (21,2 %) - sanoatda, 24416 tasi (10,5 %) - qurilishda, 20949 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 17200 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 11929 tasi (5,1%) - tashish va saqlashda, 6252 tasi (2,7 %) - axborot va aloqa sohasida, 4524 tasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 35007 tasi (15,0%) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil 1 fevral holatiga 4,4 mingdan ortiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 4,0 foizga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (1048 ta), Toshkent (442 ta), Farg'ona (372 ta) va Samarqand viloyatlarida (364 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (122 ta), Xorazm (149 ta) hamda Navoiy (173 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (1084 ta), savdoda (927 ta), qurilishda (608 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (514 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (120 ta), axborot va aloqada (134 ta) va tashish va saqlashda (201 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 fevral holatiga 12592 tani tashkil etib, ulardan 12051 tasi yoki 95,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni **36,8** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 38,5 % yoki 4640 tasi sanoat, 20,3 % yoki 2452 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 15,5 % yoki 1863 tasi savdo, 11,9 % yoki 1438 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,2 % yoki 149 tasi axborot va aloqa, 1,2 % yoki 145 tasi qurilish, 1,1 % yoki 132 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 103 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,4 % yoki 1129 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo'mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko'rsatish boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul: **S.Begmatov**
(0371) 230-80-91,90

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan